

INGLIZ BADIIY MATNIDAGI TEMPORAL BIRLIKLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMADA EKVIVALENTLIGI VA TRANSFORMATSIYA XUSUSIYATLARI (F. SKOTT FITSJERALDNING “THE GREAT GATSBY” ROMANI MISOLIDA)

Ergashova Kamola Ikromovna,
Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi
kamolaergashova56@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22942750

Annotatsiya: Maqolada F. Skott Fitsjeraldning “The Great Gatsby” romani va uning o‘zbekcha Buyuk Getsbi tarjimasida temporal birliklarning berilishi qiyosiy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda original va tarjimadagi to‘liq gaplar parallel shaklda qiyoslanib, vaqt ma’nosining saqlanish darajasi, ekvivalentlik turi hamda tarjima transformatsiyalari aniqlanadi. Tahlil natijalari aniq kalendar vaqtida to‘liq ekvivalentlik kuchli ekanini, deiktik va kontekstual vaqt birliklarida esa grammatik almashtirish, konkretlashtirish, eksplicitatsiya, umumlashtirish va tushirib qoldirish kabi transformatsiyalar faol qo‘llanishini ko‘rsatadi. Temporal birlikning tarjimadagi muvofiqligini baholashda faqat alohida so‘z emas, balki uning gap ichidagi semantik va narrativ vazifasini hisobga olish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: temporallik, temporal birlik, badiiy tarjima, ekvivalentlik, tarjima transformatsiyasi, vaqt deyksisi, davomiylik, ketma-ketlik, ingliz tili, o‘zbek tili.

KIRISH

Temporallik badiiy matnning muhim semantik kategoriyalaridan biri bo‘lib, voqealarning qachon sodir bo‘lishi, qancha davom etishi, qanday ketma-ketlikda yuz berishi va hikoya vaqtining qaysi nuqtadan tashkil etilishini ko‘rsatadi. Badiiy tarjimada temporal birliklarni boshqa tilga ko‘chirish oddiy lug‘aviy almashtirish bilan cheklanmaydi. Bir tilda ravish, predlogli birikma yoki bog‘lovchi yordamida berilgan vaqt ma’nosi ikkinchi tilda kelishik, ravishdosh, sifatdosh yoki kengaytirilgan konstruktsiya orqali ifodalanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi “The Great Gatsby” romanidagi temporal birliklarning o‘zbekcha “Buyuk Getsbi” tarjimasida qanday berilganini aniqlash, original va tarjimadagi to‘liq gaplarni qiyoslash hamda kuzatilgan ekvivalentlik va transformatsiya turlarini izohlashdan iborat. Tadqiqotda vaqt birliklari alohida so‘z sifatida emas, balki o‘z konteksti bilan birga tahlil qilindi. Bu usul temporal birlikning lug‘aviy ma’nosi bilan birga uning narrativ va pragmatik vazifasini ham aniqlash imkonini berdi.

METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy chog‘ishtirma tahlil, kontekstual semantik tahlil va tarjimaviy transformatsiyalarni aniqlash usullaridan foydalanildi. Dastlab original matndagi temporal birlik qatnashgan to‘liq gap ajratildi. Keyin o‘zbekcha tarjimadagi unga mos to‘liq gap topildi. Har bir parallel juftlikda temporal birlik, uning tarjima ekvivalenti, vaqt ma’nosining saqlanish darajasi va yuz bergan transformatsiya turi aniqlandi. Ekvivalentlik to‘liq, qisman va kontekstual ko‘rinishlarda baholandi. Transformatsiyalar esa leksik va grammatik almashtirish, konkretlashtirish, eksplicitatsiya, umumlashtirish, qo‘shish va tushirib qoldirish mezonlari asosida izohlandi.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

NATIJALAR VA TAHLIL

1-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby, 5-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi, 3-bet**
In my younger and more vulnerable years my father gave me some advice that I’ve been turning over in my mind ever since.	Inson yoshlik yillarida juda ta’sirchan bo‘ladi. Otamdan uzoq vaqt xotiramda tamg‘alanib qolgan bir maslahatni sira unuta olmayman.

Originaldagi in my younger and more vulnerable years birikmasi hikoyachining shaxsiy o‘tmish davrini bildiradi. Tarjimada temporal yadro yoshlik yillarida shaklida saqlangan. Biroq my komponenti tushirilgan va individual vaqt umumiy inson hayotiga xos davr sifatida ifodalangan. Originaldagi ever since davomiy retrospektiv ma’nosi tarjimada uzoq vaqt birikmasi orqali qayta yaratilgan. Shunday qilib, bu misolda qisman ekvivalentlik, umumlashtirish va grammatik qayta tuzish kuzatiladi.

2-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby,6-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi,4-bet**
When I came back from the East last autumn I felt that I wanted the world to be in uniform and at a sort of moral attention forever.	O‘tgan yili kuz faslida Nyu-Yorkdan qaytgach, inson fe’l-atvorining naqadar murakkabligini tushundim.

Originaldagi last autumn deiktik temporal birlik bo‘lib, hikoya nuqtasidan oldingi kuz faslini bildiradi. Tarjimadagi o‘tgan yili kuz faslida birikmasi shu vaqt referentini saqlaydi, ammo year ma’nosi tarjimada ochiq ifodalangan. Bu eksplicitatsiya va leksik kengaytirishdir. When I came back konstruktsiyasi esa qaytgach ravishdosh shakli bilan berilgan. Demak, temporal mazmun saqlangan, uning grammatik ifodasi esa o‘zbek tilining tuzilishiga moslashtirilgan.

3-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby,7-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi, 5-bet**
I graduated from New Haven in 1915, just a quarter of a century after my father, and a little later I participated in that delayed Teutonic migration known as the Great War.	Men Iyel universitetini tugatdim. Oradan bir oz vaqt o‘tgach, Jahon urushida qatnashdim.

Originalda in 1915 aniq kalendar vaqtini, a little later esa voqealar orasidagi qisqa noaniq intervalni bildiradi. Tarjimada a little later mazmuni oradan bir oz vaqt o‘tgach shaklida kengaytirib berilgan va funksional jihatdan saqlangan. Biroq keltirilgan o‘zbekcha gapda 1915 sanasi ifodalanmagan. Natijada bir temporal komponent tushirilgan, ikkinchi temporal komponent esa leksik grammatik kengaytirish orqali tarjima qilingan. Bu misol temporal axborotning bir gap doirasida turli darajada saqlanishini ko‘rsatadi.

4-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby,7-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi,5-bet**
The actual founder of my line was my grandfather’s brother who came here in fifty-one, sent a substitute to the Civil War	U 1851 yili bu yerga ko‘chib kelgach, federal armiyasida xizmatni o‘tash uchun bir kishini o‘z o‘rniga yollagan edi. O‘zi esa bu

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.



and started the wholesale hardware business that my father carries on today.	yerda mayda-chuyda temir-tersaklarning ulgurji savdosini yo‘lga qo‘yib yubordi. Endilikda bu ishlar bilan mening otam shug‘ullanmoqda.

Originaldagi in fifty-one kontekstda 1851-yilni anglatadi. Tarjimada sana 1851 yili shaklida to‘liq berilgan. Bu konkretlashtirish bo‘lsa-da, vaqt referenti o‘zgarmagan. Originaldagi today esa aynan bir kunni emas, hikoyachining hozirgi davrini bildiradi. Shu sababli u endilikda shaklida berilgan. Today va endilikda lug‘aviy jihatdan to‘liq teng bo‘lmasa ham, mazkur kontekstda bir xil hozirgi davr ma’nosini bajaradi. Bu kontekstual ekvivalentlikka misoldir.

5-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby,8-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi,6-bet**
They had spent a year in France for no particular reason, and then drifted here and there unrestfully wherever people played polo and were rich together.	Ular Fransiyada bir yil istiqomat qilibdilar, so‘ngra tanish boyonlar yig‘ilib, chavgan o‘ynab, boyliklarini sovurish maqsadida Yevropaning turli burchaklarini sayohat qilib chiqibdilar.

Bu gapda ikki xil temporal munosabat mavjud. A year va bir yil davomiylikni bildiradi va ular o‘rtasida to‘liq semantik ekvivalentlik mavjud. Then va so‘ngra esa ikki voqeaning ketma-ketligini ko‘rsatadi. Bu birliklarda ham temporal funksiya saqlangan. Shunday qilib, tarjimada bir vaqtning o‘zida davomiylik va ketma-ketlik ma’nolari muvaffaqiyatli qayta yaratilgan.

6-misol

Inglizcha original **The Great Gatsby, 9-bet**	**O‘zbekcha tarjima** **Buyuk Getsbi, 7-bet**
And so it happened that on a warm windy evening I drove over to East Egg to see two old friends whom I scarcely knew at all.	Iliq shabada esib turgan oqshomda ikki do‘stimni ko‘rgani yo‘l oldim.

Originaldagi on a warm windy evening va tarjimadagi iliq shabada esib turgan oqshomda konstruktsiyalari bir xil vaqt fonini yaratadi. Asosiy temporal birlik evening so‘zi bo‘lib, u oqshomda shaklida bevosita ekvivalentga ega. Warm windy tavsifi o‘zbekchada predikativ konstruktsiya orqali berilgan, ammo temporal referent o‘zgarmagan. Bu to‘liq funksional ekvivalentlik va grammatik qayta tuzish holatidir.

MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil temporal birliklarning tarjimada saqlanishi ularning turiga bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Aniq kalendar vaqtini va davomiylikni bildiruvchi birliklarda semantik moslik yuqori. 1851 va 1851 yili, a year va bir yil kabi juftliklarda vaqt referenti deyarli o‘zgarmagan. Deiktik va kontekstual birliklarda esa tarjimon vaqt ma’nosini o‘zbek tilining grammatik va uslubiy imkoniyatlari orqali qayta tashkil etgan.

Tahlilda ingliz tilidagi ixcham temporal birliklarning o‘zbek tilida kengroq konstruktsiya bilan ifodalanishi tez-tez kuzatildi. A little later birikmasining oradan bir oz vaqt o‘tgach shaklida berilishi bunga misoldir. Bunday o‘zgarish temporal ma’noni yo‘qotmaydi, balki uni o‘zbek tilining tabiiy sintaktik qurilishiga moslashtiradi. Last autumn birikmasining o‘tgan yili kuz faslida shaklida berilishi esa vaqt ma’nosining eksplicit ifodalanishini ko‘rsatadi.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Ayrim holatlarda temporal axborotning bir qismi tarjimada tushirilgan. In 1915 komponentining keltirilgan o‘zbekcha variantda berilmasligi aniq kalendar ma’lumotining kamayishiga olib kelgan. Boshqa holatlarda esa originalda alohida leksema bilan ifodalanmagan vaqt ma’nosi tarjimada endi yoki endilikda kabi birliklar bilan ochiq ifodalangan. Demak, temporal transformatsiya faqat so‘zning almashtirilishi emas, balki vaqt axborotining zichligi va aniqlik darajasining o‘zgarishini ham qamrab oladi.

Natijalar temporal birliklarni tarjimashunoslikda faqat lug‘aviy moslik asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Original va tarjimadagi to‘liq gaplarni parallel tahlil qilish orqali temporal birlikning deiktik markazi, davomiyligi, ketma-ketlik vazifasi va narrativ funksiyasidagi o‘zgarishlarni aniqroq ko‘rish mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijasida The Great Gatsby romani va uning o‘zbekcha Buyuk Getsbi tarjimasida temporal birliklarning uch asosiy ko‘rinishda berilishi aniqlandi. Birinchi holatda vaqt ma’nosi to‘liq yoki unga yaqin ekvivalent orqali saqlangan. A year va bir yil, evening va oqshom kabi birliklar bunga misol bo‘ladi. Ikkinchi holatda temporal ma’no saqlangan, ammo uning ifoda shakli grammatik yoki leksik jihatdan o‘zgargan. A little later va oradan bir oz vaqt o‘tgach, last autumn va o‘tgan yili kuz faslida juftliklarida shu holat kuzatiladi. Uchinchi holatda temporal axborotning ayrim komponentlari tushirilgan yoki aksincha, tarjimada ochiqroq ifodalangan.

Qiyosiy tahlil aniq kalendar vaqtida konkretlashtirish, deiktik birliklarda kontekstual ekvivalentlik, noaniq vaqt oralig‘ida leksik grammatik kengaytirish, biografik vaqt ifodalarida esa umumlashtirish transformatsiyasi faol ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, ingliz tilidagi bog‘lovchi va ravishli temporal konstruktsiyalar o‘zbek tilida ravishdosh, kelishik va analitik birikmalar yordamida qayta ifodalanishi aniqlandi.

Olingan natijalarga ko‘ra, temporal birlik tarjimasining adekvatligini baholashda faqat alohida vaqt so‘zining lug‘aviy muqobilini emas, balki to‘liq gapdagi vaqt referenti, deiktik markaz, davomiylik, ketma-ketlik va narrativ vazifaning saqlanish darajasini hisobga olish zarur. Shu yondashuv ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridagi temporal birliklarning tarjima ekvivalentligi va transformatsiyalarini tizimli o‘rganish uchun samarali model bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitzgerald F. S. The Great Gatsby. New York: Charles Scribner’s Sons, 1925.
2. Fitsjerald F. S. Buyuk Getsbi. Rus tilidan Nazira Jo‘rayeva tarjimasi. Toshkent: Davr Press, 2013.
3. Komissarov V. N. Teoriya perevoda. Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
4. Barkhudarov L. S. Yazyk i perevod. Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1975.
5. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London and New York: Routledge, 2018.
6. Munday, J., Pinto, S. R., Blakesley, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London and New York: Routledge, 2022.
7. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.